



Munosabatlarimiz tenglik, do'stlik, hamjihatlik tamoyillari asosida qurilgan

Ta'kidlash joizki, o'zbek va koreys millatlarining o'xshashliklari, umumiylik jihatlari bisyor. Bizni til jihatdan Oltoy tillar oilasi birlashtirib turgan bo'lsa, hudud jihatdan bir qit'a, bir mintaq — Yevrosiyo va Sharq umumiyashtirib turadi. Tarixiy, madaniy jihatdan ham ko'plab uyg'unlikni ko'rish mumkin.

Fikr

Jafokash koreys xalqi ham o'zbeklar singari o'tmishda ko'p bor bosqinchilar zulmi ostida yashashga, ularga qarshi keskin kurash olib borishga majbur bo'lgan. Ana shunday qiyinchiliklar evaziga bo'lsa kerak, koreyslar hozirgi tinch va farovon muhitda ham o'z mehnatsevarligi va tirishqoqligi bilan ajralib turadi, yangiliklarga qo'l urib, turmush tarzini yanada farovonlashtirishga intilib yashaydi.

Bugungi kunda O'zbekiston va

Janubiy Koreya o'rtasidagi aloqalar har bir sohada ijobiy ruhda, muvaffaqiyatli rivojlanib boryapti. Shu o'rinda munosabatlarimiz tenglik, do'stlik, hamjihatlik tamoyillari asosiga qurilganini alohida ta'kidlab o'tish joiz.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Koreya Respublikasi Prezidenti Yun Sok Yol 13 — 15-iyun kunlari davlat tashrifi bilan mamlakatimizda bo'ladi. Va bu tashrif doirasida ko'plab dolzarb masalalar muhokama qilinishi, bir qator hujjatlar imzolalanishi kutilmoqda.



O'zbekiston va Janubiy Koreya:

SIYOSIY SHARTLARDAN XOLI HAMKORLIK

Janubiy Koreya O'zbekistonning eng muhim strategik sheriklaridan. Bu ikki davlat xalqlarini qadimiy do'stlik rishtalari bog'lab turadi. Ikki xalqning madaniyati, mentaliteti o'xshash. Taqdir taqozosi bilan yurtimizga kelib qolgan koreyslar o'zbeklar bilan do'st-birodar bo'lib ketgan, jamiyatimizning faol a'zolariga aylangan. Koreys millatiga mansub yurtdoshlarimiz Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatida, mahalliy Kengashlarda, boshqaruv organlarida, iqtisodiy-ijtimoiy hayotning barcha sohasida faoliyat yuritayotir.

Nuqtai nazar

Koreya Respublikasi O'zbekiston mustaqilligini birinчилardan bo'lib, ya'ni 1991-yilning oxirlarida tan olgan, diplomatik aloqalar 1992-yil 29-yanvarda o'rnatilgan. O'tgan 32 yillik davr mobaynida har ikki tomon davlat rahbarlari o'rtasida oliy darajadagi 20 ga yaqin uchrashuvlar o'tkazilgan. Ularda siyosiy, savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar aloqalarni rivojlantirish yuzasidan muhim ahamiyatga ega bo'lgan kelishuvlarga erishilgan.

Janubiy Koreya yuksak darajada taraqqiy etgan, ulkan iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, innovatsion va intellektual salohiyatga ega davlat sifatida dunyoda e'tibor qozongan. Ochiqlik, o'zaro anglashuv va manfaatlariga hurmat asosida qaror topgan hamkorlikni ikkala tomon ham yuksak qadrlaydi. 2017, 2019 va 2021-yillarda amalga oshirilgan o'zaro davlat tashriflari natijasida imzolangan hujmatlararo bitimlar va tijorat shartnomalarining umumiy miqdori 22 mlrd. dollarni tashkil

etdi. 2019-yilda mamlakatlarimiz o'rtasidagi munosabatlar "alohida strategik sheriklik" darajasiga ko'tarildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Koreya Respublikasi Prezidentining taklifiga binoan 2020-yil 30-oktabr kuni Seul shahrida videoanjumani shaklida bo'lib o'tgan Shimoliy iqtisodiy hamkorlik ikkinchi xalqaro forumida ishtirok etdi. Davlatimiz rahbari nutqida jahondagi mushkul vaziyat va global inqiroz sharoitida aynan shunday ko'p tomonlama muloqot yangi xatar va tahdidlarga samarali qarshi turish uchun imkoniyat yaratib, mamlakatlarimiz barqarorligi, farovonligi va izchil taraqqiyotini ta'minlashga xizmat qilishini alohida ta'kidladi.

2023-yil 19-sentabr kuni O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Koreya Respublikasi Prezidenti Yun Sok Yol Nyu-York shahrida BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasi doirasida uchrashuv o'tkazdi. O'zbekiston Oliy Majlisi

Senati Raisi Tanzila Norboyeva 2023-yil 19-sentabr kuni Seul shahrida bo'lib o'tgan "Markaziy Osiyo — Koreya Respublikasi" hamkorlik forumi parlamentari rahbarlarining birinchi yig'ilishida ishtirok etdi.

Xalqaro tashkilotlar doirasida O'zbekiston Respublikasi bugungi kunga qadar Koreya Respublikasining barcha tashabbusini qo'llab-quvvatlab kelgan. O'z navbatida, rasmiy Seul ham BMT Bosh Assambleyasi doirasida O'zbekiston tashabbusi bilan 2018-yilda qabul qilingan "Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, barqarorlik va izchil taraqqiyotni ta'minlash bo'yicha mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash to'g'risida" hamda "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" rezolyutsiyalarini qo'llab-quvvatlash va unga hammualliflik qildi.

Koreya Respublikasi O'zbekistonning Osiyo — Tinch okeani mintaqasi davlatlari savdo hamkorlari orasida yetakchi o'rinni egallaydi. Xususan, 1992-yilda imzolangan savdo bitimiga muvofiq mamlakatlar o'rtasida eng qulay afzalliklar rejimi o'rnatilgan. Davlatlararo savdo-iqtisodiy munosabatlar yildan-yilga o'sib bormoqda. O'tgan yil yakuni bo'yicha o'zaro tovar ayirboshlash hajmi 2,5 mlrd. AQSH dollaridan oshdi. Janubiy Koreyaning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan savdo aylanmasida O'zbekiston ulushi qariyb 50 foizni tashkil qiladi.



Dunyo nigohi

TERGOV SUDYALARI INSTITUTI QONUN USTUVORLIGINI TA'MINLASHDA MUHIM QADAM

Xorijiy ekspertlarning fikriga ko'ra, so'nggi yillarda mamlakatimizda "Inson sha'ni va qadr-qimmatini yo'lida" tamoyili asosida yangi O'zbekistonni barpo etish borasida, jumladan, demokratiya va ijtimoiy adolat tamoyillarini mustahkamlashga qaratilgan sud-huquq sohasida ham tub islohotlar izchil amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz rahbarining "Tezkor-qidiruv hamda tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni ana shu islohotlarning mantiqiy davomi bo'ldi.

Hujjatda jinoyat protsessini tubdan modernizatsiyalash, jinoyat ishlari bo'yicha tuman, shahar sudlarida tergov sudyasi lavozimi joriy etish, ularga sudgacha bo'lgan ish yuritish bosqichida protsessual harakatlarni amalga oshirish uchun sanksiyalar berish va boshqalar nazarda tutilgan.

Ushbu huquqiy hujjatning yana bir o'ziga xos tomoni, "Xabeas korpus" instituti sohasini kengaytirish va tergov sudyalari — sudgacha bo'lgan ish yuritish bosqichida ustidan "sud nazorati"ni amalga oshirishga vakolatli alohida sudyalari shakllantirish orqali sud majlisida jinoyat ishini sur'atda chiqayotgan sudyaning

xolisligi va adolatliligi kafolatlanishidir.

Mazkur Farmonning qabul qilinishi "O'zbekiston — 2030" strategiyasida sud-huquq sohasiga oid vazifalarni hayotga izchil tatbiq etishdan kelib chiqqan holda Konstitutsiya va qonunlar ustuvorligini ta'minlash, chinakam adolatliligi sud-huquq tizimini shakllantirish va uning faoliyatini jinoyat protsessida fuqarolarning huquq va manfaatlarini samarali himoya qilishga yo'naltirish, shuningdek, aholining huquqni muhofaza etish organlariga ishonchini yanada mustahkamlashda alohida ahamiyatga ega.

Zamirbek BAZARBOKOV, Qirg'iz Respublikasi Oliy sudi raisi:



— Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar Oliy sudlari raislarining o'n to'qqizinchi yig'ilishida biz O'zbekiston Oliy sudining natijalari bilan tanishdik. Bunday yuksak yutuqlarga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qo'llab-quvvatlashi va e'tibori tufayli erishilmoqda. Ma'lumki, bugungi kunda O'zbekistonda inson huquq va erkinliklarini mustahkam himoya qilish tizimini, jumladan, tezkor-qidiruv va tergov faoliyatida tergov sudyasi institutini joriy etish orqali yangi bosqichga ko'tarishga qaratilgan keng ko'lami ishlar amalga oshirilmoqda. Belgilangan yangi vazifalar tahsinga sazovor bo'lib, ular sud-huquq tizimini yanada rivojlantirish va ulkan muvaffaqiyatlar sari yetaklashi, shubhasiz.

Sonya PROSTRAN, Belgradagi ikkinchi shahar sudi raisining o'rinbosari, sudya (Serbiya):

— O'zbekistonda sud islohotlarini diqqat bilan kuzatib boryapman. Sohadagi ijobiy o'zgarishlar, albatta, e'tirofga loyiq. Ulardan biri — ayrim Yevropa huquqiy tizimlarida mavjud bo'lgan tergov sudyasi lavozimini joriy etish.

O'zbekistonda tergov sudyalari institutining joriy etilishi qonun ustuvorligini ta'minlashda muhim qadam hisoblanadi. Sudyalik tajribamdan kelib chiqqan holda aytishim mumkin, bu fuqarolarning haq-huquqlarini yanada samarali himoya qilish imkonini beradi.



Bizning suhbat

Elchi Yuy Szyun:

Xitoy va O'zbekiston milliy madaniyatni targ'ib qilishni qo'llab-quvvatlaydi hamda sivilizatsiyalararo almashinuvni faol rivojlantiradi

Xitoy Xalq Respublikasining O'zbekistondagi elchisi Yuy Szyun "Dunyo" AA uchun intervyusida BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 7-iyunda qabul qilingan "Xalqaro sivilizatsiyalar o'rtasidagi muloqot kuni" rezolyutsiyasining ahamiyati haqidagi fikrlarini bildirdi.

— BMT Bosh Assambleyasi Xitoy va O'zbekiston tomonidan ishlab chiqilgan 10-iyun sanasini "Xalqaro sivilizatsiyalar o'rtasidagi muloqot kuni" deb e'lon qilish to'g'risidagi rezolyutsiyani bir ovozdan ma'qulladi. Ushbu tashabbusning maqsadi sivilizatsiyalar xilmaxillikka qadriyatini anglash, muloqot, o'zaro hurmat va global birdamlikni rivojlantirishga qaratilgan. Sizingcha ushbu rezolyutsiya BMTga a'zo davlatlar xalqlariga qanday foyda keltiradi?

— BMT tomonidan Xalqaro sivilizatsiyalar o'rtasidagi muloqot kunini belgilash to'g'risidagi rezolyutsiyani qabul qilinishi tarixiy ahamiyatga ega. Unda qayd etilganidek, barcha sivilizatsiyalar yutuqlari insoniyatning umumiy merosini ifodalaydi. Rezolyutsiya madaniy xilmaxillikka hurmatni rag'batlantiradi va tinchlikni ta'minlash, umumiy taraqqiyotga ko'maklashish va barcha xalqlar farovonligini oshirish uchun sivilizatsiyalar o'rtasidagi muloqot muhimligini ta'kidlaydi. U sivilizatsiyalar



o'rtasida o'zaro hurmat va teng huquqli muloqotga, shuningdek, almashuvlarni mustahkamlashga hamda global muammolarni birgalikda yengishga chaqiradi. Bugungi kunda dunyo turli inqiroz va sinovlar kuchayib borayotgan, tinchlik, taraqqiyot, ishonch va boshqaruv tanqisligi yuzaga kelgan yangi notinch o'zgarishlar davriga kirdi. Shu

nuqtai nazardan, 2023-yilda Xitoy Raisi Si Szipin Global sivilizatsiya tashabbusini ilgari surdi, sivilizatsiyalar o'rtasidagi tenglik, o'zaro o'rganish, muloqot va inklyuzivlik tamoyillarining muhimligini ta'kidlab, begonalashuvni — madaniy almashinuvlar, to'qnashuvlarni — o'zaro o'rganish, ustunlik hissininklyuzivlik bilan yengib o'tishga chaqirdi.

B M T B o s h Assambleyasining "Xalqaro sivilizatsiyalar o'rtasidagi muloqot kuni" rezolyutsiyasi Global sivilizatsiya tashabbusi mohiyatiga to'liq mos keladi va bizning xalqlar o'rtasidagi o'zaro almashinuv va butun insoniyat taraqqiyotiga ko'maklashishga bo'lgan umumiy intilishimizni aks ettiradi.



Uchrashuv

ALOQALARNI YANADA KENGAYTIRISH MASALASIGA E'TIBOR QARATILDI

Avval xabar qilinganidek, ayni chog'da Shveysariyaning Jeneva shahrida Xalqaro mehnat konferensiyasi bo'lib o'tmoqda. Unda ishtirok etayotgan Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva Xalqaro mehnat tashkilotining bir qator rahbarlari bilan uchrashuvlar o'tkazdi. Muloqotlarda aloqalarni yanada kengaytirish masalasiga alohida e'tibor qaratildi.

Mehnat munosabatlari yo'nalishidagi islohotlar yuqori baholandi

Oliy Majlis Senati Raisi, Odam savdosiga qarshi kurashish va munosib mehnat masalalari bo'yicha milliy komissiya raisi Tanzila Norboyeva Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) bosh direktori Jilber Ungbo bilan Jeneva shahridagi uchrashuvda aloqalarimizning hozirgi holati va istiqbollari muhokama qilindi.

J. Ungbo O'zbekistonning XMTning Ma'muriy kengashi a'zolariga saylangani bilan samimiy qutlab, mamlakatda mehnat munosabatlari yo'nalishida amalga oshirilayotgan islohotlarni yuqori baholadi. Erishilgan natija va tajribaning namuna sifatida mintaqa, qolaversa, jahon mamlakatlariga keng targ'ib etilayotganligini ma'lum qildi.

Muloqot davomida munosib mehnat tamoyillarini tizimli tatbiq etish ishlarini yanada takomillashtirish, shuningdek, XMT bilan ijtimoiy adolat global koalitsiyasi doirasida olib borilayotgan hamkorlik munosabatlariga alohida e'tibor qaratildi.

Suhbat chog'ida J. Ungboning O'zbekistonga ilk rasmiy tashrifi dasturi yuzasidan ham fikr almashildi.

Huquqiy asosni takomillashtirish yo'lida

Oliy Majlis Senati Raisi Odam savdosiga qarshi kurashish va munosib mehnat masalalari bo'yicha milliy komissiya raisi Tanzila Norboyeva Xalqaro mehnat tashkilotining departament direktori Korin Varga bilan uchrashdi.

Uchrashuvda mehnat va ijtimoiy munosabatlar sohasidagi O'zbekiston tomonidan ratifikatsiya qilingan xalqaro konvensiyalarning bajarilishi, bu yo'nalishda boshqa konvensiyalarga qo'shilishi masalalari ko'rib chiqildi.

Mamlakatimizda xususiy sektor rivojlanib borayotganini hisobga olib, korxonalarda ish beruvchilar va xodimlar munosabatlarining huquqiy asosini yanada kuchaytirish borasidagi hamkorlikni yo'lga qo'yishga kelishib olindi.

"Xalq so'zi".

XALQLARIMIZNI BIR-BIRIGA YAQINLASHTIRADIGAN ANJUMAN

Mamlakatimizda o'tkazilayotgan Ozarbayjon madaniyati kunlari chin ma'noda san'at, madaniyat, do'stlik va qardoshlik bayramiga aylandi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning yurtimizga tashrif buyurgan Ozarbayjon Respublikasi madaniyat vaziri Adil Karimli ni qabul qilgani alohida ahamiyatga ega voqealidir. Bu — O'zbekiston va Ozarbayjon o'rtasidagi do'stlik va hamkorlik aloqalari bugungi kunda mutlaqo yangi darajaga ko'tarilganining yaqqol ifodasi bo'ldi.

Poytaxtimizdagi "O'zbekiston" xalqaro anjumanlar saroyida Ozarbayjon madaniyati kunlarining tantanali ochilish marosimi bo'lib o'tdi.

Azaliy rishtalar

Davlatimiz rahbarining Ozarbayjon madaniyati kunlari ishtirokchilariga yo'llagan murojaatini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot kotibi Sherzod Asadov o'qib eshittirdi.

Murojaatda ta'kidlanganidek, keyingi yillarda O'zbekiston va Ozarbayjon davlatlari o'rtasida do'stlik va hamkorlik aloqalari jadal rivojlanib, mutlaqo yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Buni barcha sohalar qatori madaniy-gumanitar

yo'nalishdagi aloqalarimiz ham izchil rivojlanib borayotgani misolida barchamiz yaqqol ko'rib turibmiz.

O'zbekistonda o'tayotgan Ozarbayjon madaniyati kunlari mazkur yo'nalishdagi muhim tadbirlardan biri. Chunki u xalqlarimizni bir-biriga yanada yaqinlashtiradigan, qardoshlik rishtalarini mustahkamlaydigan uchrashuvlarga, konsert dasturlari, ko'rgazmalar, samimiy muloqotlar, taqdimotlar, anjumanlarga boy.



TERGOV SUDYALARI INSTITUTI QONUN USTUVORLIGINI TA'MINLASHDA MUHIM QADAM



Jamshid PIRO,
"36 Stone" va "Pero Chambers" advokatlik
kompaniyalari advokati,
xalqaro arbitr (Buyuk Britaniya):



O'zbekiston Prezidentining "Tekzor-qidiruv hamda tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini iшонchli himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonini qiziqish bilan o'qdim. Hujjat sud faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Matis ZUPAN,
"Mintaqaviy muloqot" dasturi direktori, huquqshunos
(Sloveniya):

O'zbekiston jinoiy sudlov tizimiga tergov sudyasi lavozimining joriy etilganini, albatta, inson huquqlarini himoya qilish borasidagi ijobiy qadam, deyish mumkin. O'ylaymanki, ushbu institutning buy xorijiy tajribasini o'rganib, O'zbekiston o'z sudlarida tergov sudyasi tizimini joriy etishda o'ziga xos yo'l va muvozanatni topadi.



Nizamettin OYDIN,
Kutahya Dumlupinar universiteti dotsenti (Turkiya):



O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng ichki ishlarida, xalqaro munosabatlarda ko'plab o'zgarishlar amalga oshirildi. Bu jarayonda mamlakat inson huquq va erkinliklarini ta'minlash sohasida ham, boshqa davlatlar bilan munosabatlarda ham, ichki ishlarida ham salmoqli yutuqlarga erishdi. Fuqarolarga huquqiy kafolatlar berish katta foyda keltiradi. Xususan, boshqa davlatlar bilan aloqa o'rnatilganda, O'zbekiston tomonidan qabul qilingan inson huquqlari va erkinliklariga oid normativ-huquqiy hujjatlarni baholagan holda aytishim mumkinki, mamlakat inson huquqlarini ta'minlash sohasida katta yutuqlarga erishdi.



Sumeyn TANDON,
"Legal Consultant" advokatlik
kompaniyasi advokati
(Hindiston):

O'zbekistonda "Inson sha'ni va qadr-qimmatini yo'lida" tamoyili asosida inson huquqlari himoyasini kuchaytirish borasida faol ishlar borilmoqda. Bu sa'y-harakatlar shaxs, sud va huquqni muhofaza etuvchi organlarning huquq va erkinliklari kafolatlarini mustahkamlashga qaratilgan aholining mazkur tizimga ishonchini mustahkamlashga xizmat qilyapti. Davlat rahbarining Farmoni sud-huquq tizimi samaradorligini oshirish, sudgacha bo'lgan ish yuritishda tenglikni ta'minlash va tergov harakatlarini davomida huquqlarni iшонchli himoyalashga qaratilgan. 2025-yil 1-yanvardan boshlab jinoyat ishlari bo'yicha sudgacha bo'lgan bosqichda protsessual sanksiyalarni ko'rib chiqish uchun tuman va shahar sudlarida tergov sudyalari lavozimini joriy etish asosiy chora-tadbirlardan biri hisoblanadi. Mazkur sudyalarga ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlar va turli jinoyat ishlarini ko'rish vakolati berilmoqda. Ularning asosiy vazifalari ijtimoiy adolatni saqlash va fuqarolarning huquqlarini himoya qilishdan iborat bo'ladi. Shuningdek, ularning faoliyati mustaqil va qat'iy qonuniy bo'lib, mintaqada sud-huquq islohotlari uchun muhim namuna vazifasini o'taydi.

Elchi Yuy Szyun:

Xitoy va O'zbekiston milliy madaniyatni targ'ib qilishni qo'llab-quvvatlaydi hamda sivilizatsiyalararo almashinuvni faol rivojlantiradi



Xitoy ham, O'zbekiston ham qadimiy va ulug'vor sivilizatsiyalar vorislari hisoblanadi. Buyuk Ipak yo'li xalqlarimiz o'rtasidagi ikki ming yillik do'stlikning guvohi bo'lib kelmoqda. Xitoy va O'zbekistonning rivojlanish konsepsiyalari o'xshash va yaqin madaniy aloqalarga ega. Ikkala tomon ham sivilizatsiyalarni himoya qilish va rivojlantirishga katta e'tibor qaratadi, milliy madaniyatni targ'ib etish tarafdori va sivilizatsiyalararo almashinuvni faol rivojlantirishga yordam beradi.

"O'zbekiston - 2030" strategiyasida o'zbek xalqining milliy qadriyatlarini va ma'naviy merosini asrab-avaylash, keng targ'ib qilish hamda rivojlantirish maqsadida ma'naviy-madaniy sohada islohotlar o'tkazish vazifalari aniq ko'rsatilgan.

O'zbekiston Xitoyning Global sivilizatsiya tashabbusini qat'iy qo'llab-quvvatlaydi. E'tiborlisi, O'zbekiston Xitoy taklifiga binoan "Xalqaro sivilizatsiyalar o'rtasidagi muloqot kuni" rezolyutsiyasini ishlab chiqishda asosiy guruh a'zosi sifatida faol ishtirok etdi va rezolyutsiyaning qabul qilinishiga muhim hissa qo'shdi.

So'nggi yillarda davlatlarimiz yetakchilari diplomatiyasi rahnamoligida Xitoy - O'zbekiston munosabatlari yangi davra har tomonlama keng qamrovli strategik sheriklikning tarixiy bosqichiga ko'tarildi. Va ikki davlat o'rtasidagi gumanitar almashinuvlarni yanada chuqurlashtirish vaqti keldi.

Xitoy O'zbekiston bilan birgalikda ushbu rezolyutsiyaning amalga oshirish, boy tarixiy va madaniy resurslarimizdan to'liq foydalanish, madaniy almashinuvlarni kengaytirish, arxeologiya va tarixiy obidalarni tiklash sohasidagi hamkorlikni chuqurlashtirish, teletranslyatsiya

sohasida hamkorlikni kuchaytirishga, tele va kinofilmlar, adabiy asarlarni tarjima qilish, turizm sohasidagi hamkorlikni mustahkamlash va odamlarning harakatiga ko'maklashishga tayyor. Shunda bizning go'zal madaniyatimiz xalqlar o'rtasidagi muloqot ko'prigiga aylanadi, shunda Xitoy va O'zbekiston o'rtasida umumiy hamjamiyatni yaratish yangi va yuqori darajaga ko'tariladi.

Janob elchi, o'tgan 10 kun ichida BMT Bosh Assambleyasi O'zbekiston tashabbusi bilan ikkita rezolyutsiyani qabul qildi va BMTning asosiy organlariga respublika vakillari saylandi. Ushbu muhim voqe'liklar haqidagi fikringiz ham biz uchun qiziq.

So'nggi yillarda Prezident Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida mamlakat milliy voqe'likka mos ravishda o'z taraqqiyot yo'lini tanlab, yangi O'zbekistonda iшонchli sur'atlar bilan barpo etayotir. Biz uning yangi qiyofasini, aholi turmush tarzining sezilarli darajada oshganini ko'raymiz.

O'zbekiston ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat yuritmoqda, turli mamlakatlarni bilan do'stona munosabatlarni keng rivojlantirayapti, chinakam ko'p qirralilikka sodiqdir. Respublika BMT, SHHT, "Xitoy - Markaziy Osiyo" formati kabi ko'p tomonlama tuzilmalarda ham muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston, shuningdek, milliy rivojlanish strategiyasini "Bir mamon, bir yo'l" tashabbusi, BMTning barqaror rivojlanish kun tartibiga muvofiqdoshlikni qo'llab-quvvatlaydi. Markaziy Osiyoda yaxshi qo'shniqlikni saqlash, tinchlik va barqarorlikni ta'minlashga beqiyos hissa qo'shmoqda.

O'tgan ikki hafta davomida BMT Inson huquqlari qo'mitasi, XMT Ma'muriy

kengashi va BMT Iqtisodiy va ijtimoiy kengashiga O'zbekiston vakillari saylandi.

Bundan tashqari, BMT Bosh Assambleyasi tomonidan "Markaziy Osiyo davlatlarining gijohvandlik bilan bog'liq muammolari samarali hal etish va bartaraf etish uchun yagona front bo'lib harakatlanish va hamkorlik qilishga tayyorligi" rezolyutsiyasi bir ovozdan qabul qilindi. O'zbekiston BMT doirasida atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish bo'yicha yangi tashabbuslarni ham faol ilgari surmoqda.

Mazkur yutuqlar O'zbekistonning xalqaro mavqei sezilarli darajada yuksalib borayotganidan dalolat beradi. Mamlakat global boshqaruvda faol ishtirok etib, umuminsoniy qadriyatlarga qat'iy amal qilgan holda nafaqat o'z taraqqiyotiga e'tibor qaratayotganini, balki tinchlik-osoyshtalik va butun insoniyat umumiy taraqqiyotini ta'minlashga intilayotganini namoyish etmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Bugungi O'zbekiston - kechagi O'zbekiston emas". Xitoy qo'shni va hamkor sifatida mamlakatning turli sohalarda erishayotgan yutuqlaridan chin dildan quvonadi. Iшонchim komilki, Prezidentingiz rahnamoligida "O'zbekiston - 2030" strategiyasida belgilangan maqsadlarga, albatta, erishiladi, mamlakatning qudrati va ta'siri yanada yuksaladi.

Xitoy O'zbekiston bilan birgalikda umumiy hamjamiyatni barpo etish, global taraqqiyot, global xavfsizlik va global sivilizatsiya tashabbuslarini faol amalga oshirish, dunyo tinchligiga ko'proq hissa qo'shish va global taraqqiyot uchun ko'proq imkoniyatlar yaratish uchun hamkorlik qilishga tayyor.

"Dunyo" AA.

Munosabatlarning tenglik, do'stlik, hamjihatlik tamoyillari asosida qurilgan



Shu ma'noda, mazkur tashrif ikki davlat va millat o'rtasidagi iqtisodiy, savdo va madaniy-texnikaviy aloqalarni yanada mustahkamlashda muhim o'rin tutadi, desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Ma'lumki, hozirgi paytda mamlakatlarimiz hamkorlik ko'lami savdo, sarmoya, eksport-import, yoqilg'i-energetika, kimyo, transport va logistika, avtomobilsozlik, tog'-kon sanoati, yengil sanoat, oziq-ovqat, qishloq xo'jaligi, axborot texnologiyalari va telekommunikatsiyalar, tibbiyot, turizm, fan-ta'lim va madaniyat kabi ko'plab sohalarni qamrab olgan bo'lib, buni bundan-da jadallashirish ayni muqaddor.

Ikki mamlakat rahbarlari o'rtasida bo'lib o'tadigan oliy darajadagi muzokaralarda O'zbekiston - Janubiy Koreya do'stlik va alohida strategik sheriklik munosabatlarini yanada rivojlantirishning dolzarb masalalari ko'rib chiqiladi, bu tomonlar manfaatlariga birdek xizmat qiladi.

Shu bilan birga, savdo, innovatsiyalar va texnologiyalar almashinuvini, energetika, elektronika va elektrotexnika, kimyo sanoati, qishloq xo'jaligi, infratuzilmaviy rivojlanish hamda boshqa ustuvor yo'nalishlarda amaliy hamkorlikni kengaytirish masalalari e'tibor markazida bo'ladi va ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, sport va turizm sohalaridagi qo'shma dasturlar muvofiq qilinib olinadi.

Mintaqaviy, shu jumladan, "Markaziy Osiyo - Koreya Respublikasi" formatidagi hamkorlik yuzasidan fikr almashiladi.

Muzokaralar yakunlari bo'yicha imzolanaajak hukumatlararo va idoralararo bir qator hujjatlar mamlakatlarimiz istiqbol uchun muhim ahamiyat kasb etadi va tez fursatda o'z amaliy natijalarini beradi, deb o'ylaymiz.

Qolaversa, O'zbekiston va Janubiy Koreya Prezidentlari qo'shma biznes-forumda ishtirok etishi ko'zda tutilgan bo'lib, ushbu tadbir mamlakatimiz biznes salohiyatini oshirish, tadbirkorlar uchun yanada keng imkoniyatlar yaratishda o'ziga xos platforma vazifasini o'taydi.

Umuman, mazkur tashrifdan ko'p narsalar kutilmoqda. Asosiysi, u ikki davlat va millat o'rtasidagi do'stlik rishtalarini yanada mustahkamlash barobarida hamkorlik aloqalarimizni yangi bosqichga olib chiqadi.

Mahmudjon PARPIYEV,
Oliy Majlis Senatining Xabardorlik siyosati va davlat organlarida ochiqlikni ta'minlash masalalari qo'mitasida doimiy asosda ishlovchi senator.

O'zbekiston va Janubiy Koreya:

SIYOSIY SHARTLARDAN XOLI HAMKORLIK



Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar zaminida xalq davlat idoralarga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak, degan ezgu g'oya mujassam bo'lsa, Koreya Respublikasida ham davlatning haqiqiy egasi xalqdir, degan g'oya ustuvor. Ushbu mamlakatning O'zbekiston iqtisodiyotiga jalb etgan investitsiyalari hajmi 7 mlrd. dollardan oshdi. Yurtimizda Janubiy Koreya kapitali ishtirokida yuzlab korxonalar faoliyat yuritmoqda. Ular neft-gaz, neft-kimyo, mashinasozlik, elektrotexnika hamda to'qimachilik sohalarida, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, transport va logistika, turizm yo'nalishlarida muvaffaqiyatli ish olib bormoqda. Energetika sohasidagi aloqalar ham jadal rivojlanmoqda. 2016-yil Janubiy Koreya bilan hamkorlikda Ustyurt gaz-kimyo majmuasi barpo etildi. Mamlakatlarimizning savdo-iqtisodiy hamda sarmoyaviy hamkorligining yorqin namunasi bo'lgan ushbu yirik loyihaga 4 mlrd. dollar miqdorida mablag' yo'natirilgan.

Janubiy Koreya O'zbekistonda erkin iqtisodiy zonalar tashkil etish va ularni rivojlantirishga ko'maklashayotir. "Navoiy" erkin iqtisodiy zonasida Janubiy Koreya ishtirokida ko'plab korxonalar faoliyat yuritmoqda. Xususan, "CNP Dream" kompaniyasi bilan hamkorlikda kosmetika mahsulotlari ishlab chiqaradigan zavod qurildi. Ushbu mahsulotlar Markaziy Osiyo mamlakatlarga eksport qilinayotir. Shuningdek, Koreya Respublikasi Xalqaro hamkorlik agentligi hamda Eksport-import banki mamlakatimizda qator loyihalarni amalga oshiryapti.

"Samsung" "Artele" kompaniyasi bilan maishiy texnika vositalari ishlab chiqarishni yo'lga qo'ygan. Umuman, O'zbekistonga investitsiya kiritgan eng yirik kompaniyalar - "Koreya milliy neft korporatsiyasi" (KNOC), "Koreya gaz korporatsiyasi" (KoGas), "Daewoo International", "Korean Air", "Shindong Enercom", "Haintex" va "LG" hisoblanadi. "Koreya milliy neft korporatsiyasi" Farg'ona vodiysida yangi neft konlarini qidirib topish loyihalarini amalga oshirish ustida ish olib bormoqda.

Bugungi kunda hamkorlikning Koreya Respublikasi mamlakatimizga raqamli va "yashil" texnologiyalarni keltirishda asosiy hamkorlardan biri. Oliy, kasb-hunar va maktabgacha ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniy meros obyektlarini raqamlashtirish va restavratsiya qilish borasida hamkorlik yuqori bosqichda.

Bundan tashqari, ikki davlat hamjihatligining yangi yo'nalishi sifatida yuqori texnologik sohalar, jumladan, energetika, neft-gaz, kimyo va neft-kimyo, farmatsevtika, qayta ishlash sanoati, qishloq xo'jaligi, infratuzilmaviy modernizatsiya qilish, transport va logistika, turizm va ko'plab boshqa tarmoqlarda jami qiymati 3,4 mlrd. AQSH dollaridan ziyod bo'lgan 55 ta yangi loyiha amalga oshirilyapti.

Madaniy-gumanitar hamkorlik yo'nalishida ham qator yutuqlarga erishilgan. Xususan, ta'lim sohasida Toshkentda 1992-yildan boshlab Koreya ta'lim markazi faoliyat ko'rsatib kelmoqda. O'zbekistonning 7 ta oliy ta'lim muassasasida hamda 48 ta maktab va litseyida koreys tili o'qatiladi. O'zbekistonda Inha, Puchon, Yoju universitetlari filiallari hamda Farg'onada Koreya xalqaro universiteti faoliyat yuritib keladi. 2021-yil 1-fevralda esa Adju universitetining filiali ochildi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi sheriklik doirasida hozirga qadar respublikamizning 400 dan ortiq tibbiyot mutaxassislari Janubiy Koreyaning yetakchi klinika va markazlarida malakasini oshirdi. 2019-yil aprel oyida sog'liqni saqlash sohasida O'zbekiston - Koreya hamkorlik markazi tashkil etildi. 2020-yil may oyida "EDCF" fondi ko'magida Toshkentda Bolalar ko'p tarmoqli milliy tibbiyot markazi qurilishi yakunlandi.

Ikki davlat o'rtasida madaniyat sohasida aloqalar ham izchillik bilan davom etmoqda. 2014-yilda Toshkentdagi Do'stlik bog'i hududining bir qismida Seul bog'i tashkil etildi. 2019-yil aprel oyida Toshkentda Koreya madaniyati va san'ati uyi faoliyatini boshladi. Toshkent ko'chalaridan biri "Seul" deb nomlandi. 2018-yil oktabr oyida Seulda "O'zbekiston madaniyati haftaligi" tashkil etildi. 2019-yil mart oyida "Janubiy Koreya - Markaziy Osiyo" hamkorlik forumi kotibiyati tomonidan "Seulda Navro'z" xalqaro festivali tashkil etildi.

Bugungi kunda hamkorlikning yangi yo'nalishi sifatida tashqi savdo

aylanmasining nomutanosibligini tenglashtirish hamda eksport-import operatsiyalari nomenklaturasini diversifikatsiya qilish maqsadida ikki davlat o'rtasida Erkin savdo to'g'risida bitim imzolash bo'yicha muzokaralar olib borilmoqda.

Aytish joizki, bu bitim - xalqaro integratsiyaning bir turi bo'lib, xalqaro shartnomaga muvofiq ishtirokchi davlatlar o'rtasida o'zaro savdoda bojxona to'lovlari, soliqlar, yig'imlar, shuningdek, miqdoriy cheklolvar bekor qilindi.

Iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish, "yashil" iqtisodiyot, uglerod neytralligini ta'minlash, sog'liqni saqlash va raqamlashtirish sohalarida o'zaro munosabatlarni beqiyos ahamiyat kasb etgan. Ayniqsa, iqlim muammolariga qarshi kurashish yo'nalishida O'zbekiston tomoni "yashil" kun tartibini ilgari surish va iqlim o'zgarishi jarayonlarini jilovlash bo'yicha xalqaro sa'y-harakatlarda Koreya Respublikasi bilan faol hamkor. Raqamlashtirish sohasida tajriba almashish va innovatsion ishlanmalarni almashish uchun ekspertlar va IT mutaxassislari uchun doimiy platforma yaratish ustida ishlar olib borilyapti.

Ayonki, O'zbekiston kuchli demokratik, ilg'or rivojlangan davlatlar safidan mustahkam o'rin egallashni maqsad qilgan. Dunyoning rivojlangan 50 mamlakat qatoriga kirish bosh vazifa. Bu boradagi islohotlar esa xalqimizga munosib sharoit yaratib berish maqsadida amalga oshirilyapti. Bunda Janubiy Koreyaning tajribalaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Uning elektron hukumat, xavfsiz va "aqlli shahar" yaratish, oliy ta'lim, maktabgacha ta'lim sohalaridagi yutuqlari beqiyos.

E'tiborlisi, keyingi yillarda O'zbekistonning shaxdam odamlari xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilmoqda. Vaholanki, respublikamizga yaqin-yaqin, aksariyat tahlilchilar tomonidan jahonning "yopiq" davlatlaridan biri sifatida qiyos berib kelinadi.

Bu nekin mujda xalqaro miqyosda katta aks sado berdi. Bu, albatta, yurtimizda qisqa vaqt davomida oqilona yo'lga qo'yilgan ichki va tashqi siyosatning amaliy ifodasidir, desak, ayni haqiqat. Mintaqada eng ko'p aholiga ega mamlakat iqtisodiyotini liberallashtirish,



chetsdan ko'proq sarmoya jalb etish sa'y-harakatlari uzluksiz olib borilyapti. Bunda korruptsiyaga qarshi kurash O'zbekiston iqtisodiyotini tarqatish to'g'risida muhim o'rin tutadi.

Ko'pchilikka yaxshi ma'lum, ushbu illatga qarshi kurashda, unga barham berishda raqamlashtirish zaruriyati yanada oshadi. Bu, o'z navbatida, juda ko'p resurslarni talab qiladi. Shunday ekan, hozirdan raqamli iqtisodiyotga o'tish muhim vazifaga aylandi. Bu sohada ham Janubiy Koreya tajribasidan o'rganishga arzilar jihatlar ko'p. Raqamli iqtisodiyot insonlarsiz boshqaruv tizimini yo'lga qo'yish orqali korruptsiyani kamaytiradi, soliq tushumlarini "aqlli" shartnomalar tuzish orqali ko'paytiradi, budjet xarajatlarning ochiqligini oshiradi, yagona elektron platforma orqali davlat xizmatlarini ko'rsatish imkoniyatini beradi.

Raqamli iqtisodiyot - elektoral madaniyatning yuksalishi hamdir. U taraqqiy etsa, bu orqali vaqtdan yutamiz, ortiqcha mehnatdan xalos bo'lamiz, sifati ko'rsatkichiga ega qizqim, jumladan, kambag'allik ham kamayadi.

Raqamli iqtisodiyot - korruptsiya va "yashirin iqtisodiyot" ildiziga bolta uruvchi vosita. Chunki raqamlar hamma narsani muhrlaydi, xotirada saqlaydi,

Bugungi kunda Koreya Respublikasi barcha yo'nalishda, xususan, amalga oshirilayotgan iqtisodiy-ijtimoiy o'zgarishlarda, xalqaro masalalarda O'zbekistonning sinalgan, ishonchli strategik hamkoriga aylandi. O'z navbatida, O'zbekiston bilan siyosiy, iqtisodiy jabhalarda keng aloqalarni yo'lga qo'yish Koreya tomoni manfaatlariga ham to'la mos keladi. Shu ma'noda, O'zbekiston va Janubiy Koreya hamkorligi istiqbolli. Munosabatlarda siyosiy shartlarning qo'yilmasligi, samimiy va do'stona aloqalar kelajakda ulkan loyihalarni amalga oshirishga va xalqlarimiz farovonligiga xizmat qiladi.

To'lqin TESHABOYEV,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

O'zbekiston va Qozog'iston sayyohlik kompaniyalari o'rtasida turistlar oqimini oshirish bo'yicha memorandum imzolandi.

Ishchi guruh yig'ilishida

O'smirlar va yoshlar ruhiy salomatligi tahlildan o'tkazildi

Oliy Majlis Senatining Yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi huzurida tashkil etilgan O'zbekiston Respublikasida o'smirlar va yoshlar ruhiy salomatligini profilaktika qilish va mustahkamlash masalalari bo'yicha idoralararo ishchi guruh yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Unda o'smirlar va yoshlar ruhiy salomatligi bilan bog'liq bir qator dolzarb masalalar muhokama qilindi. Dastlab maxsus ijtimoiy-emotsional o'quv so'nglarini (SEL) umumta'lim maktablarida yo'lga qo'yish bo'yicha olib borilayotgan ishlar ko'rib chiqildi.

Ta'kidlanganidek, Prezidentimizning 2023-yil 19-iyundagi qarori va 2024-yil 6-maydagi Farmonida o'quvchilarda o'zini o'zi boshqarish, murakkab hayotiy vaziyatlarni yengib o'tish ko'nikmalarini shakllantirish, depressiya, xavotirli holatlar va suitsidlarining oldini olish bo'yicha aniq vazifalar belgilab berilgan.

Shundan kelib chiqib, yig'ilishda mazkur vazifalar ijrosi doirasida olib borilayotgan ishlar to'g'risida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi mas'ulalarining axboroti eshitildi.

Muhokama jarayonida Respublika ixtisoslashtirilgan ruhiy salomatlik ilmiy-amaliy tibbiyot markazi tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy-emotsional trening o'tkazish bo'yicha trenerlar uchun uslubiy qo'llanma taqdimoti ham bo'lib o'tdi.

Yig'ilishda yana bir dolzarb masala, ya'ni o'smirlar va yoshlar o'rtasida gijohvandlik va psixotrop moddalar iste'molining oldini olish yuzasidan olib borilayotgan ishlar holati ham atroflicha tahlildan o'tkazildi.

So'nggi uch yil mobaynida mazkur yo'nalishda 25 mingga yaqin jinoyat ishlari qo'zg'atilib, 17 mingdan ziyod shaxslar jinoyiy javobgarlikka tortilgan, shundan 5 mingga yaqini 30 yoshgacha bo'lgan navqiron avlod ekanligi tashvishlidir.

Tahlillarga ko'ra narkojinoyat sodir etgan yoshlar soni yildan-yilga o'sib bormoqda. Xususan, 2021-yilda bunday jinoyatlar sodir qilganlarning 23 foizini yoshlar tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda 24,6 foizga, 2023-yilda esa 31,2 foizga yetgan.

Internetda psixotrop moddalar savdosiga ixtisoslashtirilgan 52 ta axborot resursi aniqlangan – 14 tasi veb-sayt, 38 tasi Telegram messengeridir. Eng achinarlisi, Telegram kanallari orqali 120 mingga yaqin foydalanuvchilar qamrab olingan.

Yig'ilishda IIV mas'ullari ushbu illatga qarshi kurashish va uning oldini olish borasida ko'rilayotgan ta'sirchan choralar hamda istiqbolidagi rejalar haqida ma'lumot berib o'tdi.

Muhokama jarayonida ishchi guruh a'zolari tomonidan gijohvandlikka qarshi kurashishga doir qonunchilikni takomillashtirish, xususan, undagi javobgarlik masalasini qayta ko'rib chiqish zarurligi qayd etildi hamda bu borada tegishli takliflarni ishlab chiqishga kelishib olindi.

“Xalq so'zi”.

“Hukumat soati”

KIRISH IMTIHONLARIDAGI «AVVAL TEST, SO'NG TANLOV» TARTIBI QANDAY ISHLAYDI?

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi tashabbusi bilan navbatdagi “Hukumat soati” bo'lib o'tdi.

Unda deputatlar “Oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga qabul qilish tizimini yanada takomillashtirish, shu jumladan, davlat oliy va professional ta'lim muassasalariga kirish uchun imtihonlarni “avval test, so'ng tanlov” tamoyiliga muvofiq tashkil etish borasida olib borilayotgan ishlar to'g'risida”gi masalani muhokama qildilar.

“Hukumat soati” da deputatlarimiz oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga qabul qilish bo'yicha davlat buyurtmasi parametrlari va oliy ta'lim kadrlariga bo'lgan ehtiyojini ta'minlash uchun maqsadli qabul kvotalarini shakllantirish yuzasidan ko'rilayotgan chora-tadbirlar bo'yicha savollarga O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri Kongratbay Sharipov batafsil javob berdi.



Ma'lum qilinishicha, davlatimiz rahbarining 2024-yil 24-maydagi tegishli Farmoniga asosan 2024/2025 o'quv yili uchun davlat buyurtmasi parametrlariga takliflar bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari kesimida shakllantirilgan. Bunda muhandislik, ishlov berish va qurilish, sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot, tabiiy fanlar, AKT sohalari yo'nalishlari bo'yicha davlat granti kvotalari oshirilishi taklif etilgan.

Shuningdek, umumiy qabul kvotalari (grant va shartnomaga ajratilmagan holda) oliygohlarning takliflari asosida

shakllantirilmoqda. Ushbu takliflar Davlat komissiyasiga tasdiqlash uchun taqdim qilinadi. Bunda umumiy qabul parametrlari oliygohlari, yo'nalishlari, ta'lim tili, ta'lim shakli bo'yicha tasdiqlanadi. Umumiy qabul kvotalari bakalavriatga 200 mingdan ortiq bo'lishi, shubhasiz, yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrov darajasi 43 foizdan oshirishini ta'minlaydi.

Maqsadli qabul kvotalari

esa hududlar, sohalar va tarmoqlarning oliy ta'lim kadrlariga bo'lgan ehtiyojidan kelib chiqib, davlat granti kvotalari doirasida Davlat komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi.

“Hukumat soati” da oliy va professional ta'lim muassasalariga qabul qilish imtihonlariga “avval test, so'ng tanlov” mexanizmini joriy etish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar yuzasidan ham batafsil o'xtalib o'tildi.

Kongratbay Sharipovning qayd etishicha, Prezidentimizning tegishli Farmoniga asosan 2024/2025 o'quv yili uchun



ba'kavriatga qabul bo'yicha ro'yxatdan o'tishning birinchi bosqichi joriy yil 5-iyun kundan boshlandi va 25-iyungacha davom etadi. Buning uchun abituriyentlarga faqat test sinovlari o'tkaziladigan yo'nalishlarga test topshiradigan fanlar, ta'lim tili, test topshirish hududini tanlash, shuningdek, ijodiy imtihon o'tkaziladigan yo'nalishlarga esa bakalavriat ta'lim yo'nalishi va ijodiy imtihon topshiriladigan oliygo'na tanlash imkoniyati yaratildi.

Ro'yxatdan o'tishning birinchi bosqichi yakunlangandan so'ng 1 – 25-iyul kunlari ijodiy imtihonlar, 14 – 28-iyul kunlari test sinovlari o'tkazilishi rejalashtirilgan. Mazkur tadbirlar bo'yicha vazirlik, Bilim va malakalarni baholash agentligi hamda oliygohlari tomonidan bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, abituriyentlar ijodiy imtihonda to'plagan ballini o'sha kunning o'zida, testda to'plagan ballini ertasiga bilishi mumkin bo'ladi. Ijodiy imtihon va test sinovlari to'liq yakunlangandan so'ng 15 kun davomida ro'yxatdan o'tishning ikkinchi bosqichida abituriyentlar test ballaridan kelib chiqib, 5 tagacha oliygo'na (yo'nalish), ta'lim shakli, tanlov ustuvorligini, ijodiy imtihon o'tkazilgan yo'nalish uchun esa qo'shimcha ravishda tanlangan yo'nalish bo'yicha yana shuncha oliygo'na tanlash huquqiga ega.

Deputatlar bu borada amalga oshirilayotgan keng qamrovli ishlarini ijobiy baholagan holda, oliy ta'lim yo'nalishlarini maqbullashtirish, ta'lim dasturlari (malaka talabi, o'quv reja va o'quv dasturlari)ni ishlab chiqish bo'yicha qanday ishlar qilindi, degan savol bilan vazirga

yuzlandi.

Vazir o'z javobida oliy ta'limning me'yoriy-uslubiy hujjatlarini takomillashtirish yuzasidan ilg'or xorijiy tajriba asosida bakalavriat va magistratura yo'nalishlarini qayta ko'rib chiqqan holda ayni paytda talab yuqori bo'lgan sohalariga kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'yish maqsadida oliy ta'limning bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari klassifikatori 40 foizga, xususan, 306 ta bakalavriat ta'lim yo'nalishi 183 ta maqbullashtirilgan holda tasdiqlanganini qayd etdi.

Shu bilan birga, pedagogika sohasida kadrlar tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalarida talabalari uchun 2-kursdan boshlab, haftalik o'quv mashg'ulotlarini “4+2” tartibida, jumladan, darslarning 4 kuni oliy ta'lim muassasasida, 2 kuni maktabgacha, umumiy o'rta va professional ta'lim muassasalarida amaliyot o'tash shaklida olib borilishini ta'minlashga qaratilgan ishlar davom ettirilishini ma'lum qildi.

Bundan tashqari, oliy ta'lim muassasalarida adolatli reyting baholashni nazoratga olish, bu borada korruptsiya holatlariga yo'l qo'ymaslik, taqdim etilgan kvotalarni shakllantirish, “O'zbekiston yangi kasblar atlasini” elektron platformasini yaratish bilan bog'liq savollarga vazir tomonidan atroflicha javob qaytarildi.

“Hukumat soati” da deputatlar tomonidan soha istiqboliga qaratilgan bir qator takliflar berildi va ular tartibidagi masala yuzasidan samarali parlament nazoratini ta'minlashga kelishib olindi.

“Xalq so'zi”.

QISQA SATRLARDA

Investitsiyalarni o'zlashtirish holati qay darajada?

Bosh prokuraturada Investitsiyalarni jalb qilish, sanoatni rivojlantirish va savdoni tartibga solish masalalari bo'yicha Hukumat komissiyasining majlisi bo'lib o'tdi.

Videoselektor shaklida o'tkazilgan ushbu yig'ilishda xorijiy investitsiyalarni o'zlashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarining natijadorligi ko'rib chiqildi.

Xalqaro ixtirochilar forumi

Samarqandda yoshlarning “STEM” ta'limi doirasida bilim va ko'nikmalarini oshirish maqsadida xalqaro ixtirochi yoshlar forumi tashkil etildi. Unda akademiklar, ekspert hamda olimlar, ilm-fan va texnologiya sohasining yetuk namoyandalari, ixtirochi talabalar “STEM” ta'limiga oid mavzularni muhokama qildi.



Forum akademik va ilmiy sohalaridagi yetakchi mutaxassislar, xususan, dunyoning eng nufuzli universitetlaridagi yosh olimlar bilan yaqindan tanishish, fikr almashish, kelajakda ularning O'zbekistonda jahon darajasidagi “STEM” ta'limini rivojlantirishga hissa qo'shishi uchun zamin yaratdi.

Yangi sarmoyaviy loyiha

Beruniy tumanida “Lider Gips” mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan yangi investitsiya loyihasi ishga tushirilmoqda.

Qurilish materiallari ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan loyihaning umumiy qiymati 25,5 mlrd. so'm bo'lib, shundan 1,8 mln. AQSH dollari xorijiy kredit asosida shakllantirilgan.

Yiliga 2 mln. kv/metr gipsokarton ishlab chiqarish quvvatiga ega loyiha ishga tushirilishi natijasida 18 ta yangi ish o'rni yaratiladi. Undan ko'zlangan maqsad ichki bozorni har xil turdagi arzon hamda sifatli qurilish materiallari bilan ta'minlashdir.

Ota-onalar quvonchi cheksiz

Peshku tumanidagi Deycha mahallasida 120 o'rinni maktabgacha ta'lim muassasasi ish boshladi. Uning qurilishi uchun davlatimiz tomonidan 3 mlrd. 800 mln. so'm sarflandi.



Bundan to'rt yil muqaddam tumanda maktabgacha ta'lim tashkilotlari 96 tani tashkil etgan bo'lsa, bugungi kunda ularning soni 176 taga yetdi. Natijada 3 – 7 yoshli bolajonlarni muassasalariga qamrab olish darajasi 92 foizga ko'tarildi.

Raqamli transformatsiya va ilg'or tajriba

Poytaxtimizda bo'lib o'tayotgan “Raqamli transformatsiya va o'zaro hamkorlik” – xalqaro PLAS-forumda davlat organlari, bank sektori hamda biznes vakillari ishtirok etyapti.

Tadbir qatnashchilari ikki kunlik qiziqarli mavzularga oid dastur hamda istiqbolli yechimlar va xizmatlar taqdimoti doirasida xalqaro va MDH mamlakatlaridagi eng ilg'or kompaniyalarning innovatsion ishlarnalari, shuningdek, ulardan oliy mavzularni o'zaro savdo tarmoqlarining foydalanish tajribasi bilan bevosita tanishish imkoniga ega bo'lmoqda.

“Xalq so'zi”.

Qonun ijodkorligi va ta'sirchan parlament nazorati

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda belgilangan inson qadrini ulug'lash, fuqarolarga munosib turmush sharoiti yaratish bosh g'oyasi bugungi kunda izchillik bilan tatbiq etilmoqda. Ayniqsa, aholi huquq va erkinliklarini ta'minlash, qonuniy manfaatlarini kafolatlash ustuvor ahamiyatga ega bo'lib, bu borada ham aniq chora-tadbirlar ro'yobga chiqarilayapti.

Xalq bilan muloqot

Quyida palata deputatlari ushbu jarayonda faol ishtirok etib, o'z elektorati – saylovchilar oldidagi burch va vazifalarini samarali bajarib kelmoqda. Bu bejiz emas. Chunki demokratik islohotlarni ro'yobga chiqarish, uning huquqiy asosini takomillashtirish, xalqchil qonun loyihalarini ishlab chiqishda aholi bilan ochiq muloqotlar va unda ko'tariladigan takliflar dolzarb bo'lib, xalq vakillari bundan unumli foydalanayotir.

Qayd etish kerak, Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Reglamentiga muvofiq, har o'ning so'nggi haftasida deputatlarining saylov okruglarida uchrashuvlari uyushtirilayotgani o'ziga xos an'anaga aylandi. Mazkur amaliyot Prezident tomonidan hududlarni har tomonlama rivojlantirish bo'yicha belgilab berilgan vazifalarning ijrosini ta'minlashda, bu boradagi ishlarni to'g'ri tashkil qilish va natijadorlikni kafolatlashda muhim ahamiyat kasb etayotir.

Shu ma'noda, yaqinda parlament a'zolarining o'z saylov okruglarida bo'lib, xalq bilan ochiq muloqotlar o'tkazgani, saylovchilarni o'ylantirib kelayotgan masalalarni o'rgangan va ularni ijobiy hal etish choralari ko'rilgani samarali bo'ldi, deyish mumkin.

Binobarin, samimiy suhbatlar chog'ida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlarining borishi, qabul qilinayotgan qonun hujjatlarining mazmun-mohiyati va ahamiyati aholiga yetkazildi. “O'zbekiston – 2030” strategiyasi va uni “Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi doirasidagi ishlarining mazmun-mohiyati keng jamoatchilikka tushuntirildi. Mamlakatimiz rahbarining hududlarda

tashriflari yakunlari bo'yicha qabul qilingan bayonlarda va boshqa hujjatlarda belgilangan vazifalarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishi tahlil etildi. Hududiy va respublikaviy dasturlarining bajarilishi hamda 2024-yilda ijtimoiy infratuzilma obyektlarining ishga tushirilishi bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar monitoring qilindi.

Yer uchastkalari va ularda qurilgan binolarga bo'lgan huquqlarni e'tirof etish, yoqilg'i-energetika sohasida bozor mexanizmlarini joriy qilish, ko'p kvartirali uylarda umumiy mol-mulkni saqlash va undan foydalanishga doir chora-tadbirlarning ahamiyati aholiga aniq misollar orqali tushuntirildi.

Ayonki, qabul qilinayotgan qonun loyihalarining pishiq, puxta, mukammal bo'lishi deputatlarining joylarda qonunlarning ijrosini, odamlarning unga munosabati va nuqtayi nazarini yaqindan o'rganishiga bevosita bog'liq. Bu mavjud qonunlardagi bo'shliqlarni aniqlash hamda ularni maromiga yetkazishga xizmat qiladigan asosli taklif va tashabbuslarni ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu o'rinda yaqinda quyida palatada qabul qilingan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarni ikkilamchi ijara berish va ulardan samarali foydalanish tartibini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasini misol sifatida keltirish mumkin. Mazkur qonun loyihasidagi muhim normalar deputatlarining hududlarga chiqqan holda, fermer xo'jaliklari misolida nazorat-tahlil tartibida o'rganishlari orqali kiritilgani e'tiborga molik. Ya'ni yangilangan normalarga ko'ra, asosiy ekinlarning rivojlanishiga sababiy ta'siri bo'lmagan hollarda

bog'lar va tokzorlarning qator oralarga daromad keltirishi mumkin bo'lgan maqbul ekinlar ekilishini ta'minlash nazarda tutilgan dehqonlarimizga qulaylik tug'dirish barobarida, ularga imkoniyatlar taqdim etdi.

Aholi bilan uchrashuvlar doirasidagi bu galgi tadbirlarda ham quyida palataning ko'rib chiqishida bo'lgan qonun loyihalari ko'tarilgani yuzasidan, jumladan, ularning quyida tuzilmalaridan taklif va xulosalar olish, shuningdek, hududlarda siyosiy partiyalar bilan birgalikda ayrim qonun loyihalari bo'yicha jamoatchilik muhokamalarini tashkil etishga alohida e'tibor qaratildi.

Xalq qabulxonalarida bilan hamkorlikda fuqarolarning sayyor qabuli uyushtirilgani diqqatga sazovor. Ularda aholi tomonidan ko'tarilayotgan muammolarni mahalliy ijro hokimiyati organlari bilan birgalikda joyida hal etish choralari ko'riladi. Qabullarga hududlardan Qonunchilik palatasiga murojaat yo'llagan fuqarolar taklif etilib, ularni qiyinab kelayotgan masalalar ham joyida ko'rib chiqildi.

Mahalliy Kengashlar deputatlari ham partiyaviyligidan kelib chiqib, joylardagi muloqotlarga jalb qilindi. Mahalliy Kengashlar deputatlarining saylov okruglarida aholi tomonidan ko'tarilayotgan masalalarni hal etishdagi rolini oshirishga hamda ularning “mahalla yetilgini” bilan hamkorligini yanada yaxshilashga ko'maklashildi.

Oliy ta'lim muassasalarida o'tkazilgan uchrashuvlar hamda talabalar bilan kechgan yuzma-yuz muloqotlar davomida ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, qabul qilinayotgan qonunchilik hujjatlarining mazmun-mohiyati tushuntirildi.

Shu o'rinda raqamlarga to'xtaladigan bo'lsak, bu galgi uchrashuvlarda deputatlar mahalliy ijro organlari bilan birgalikda ko'rgan chora-tadbirlari natijasida aholi tomonidan ko'tarilgan 82 ta masala ijobiy hal etildi. Jumladan, aholi bandligini ta'minlash, shu orqali

odamlarning doimiy daromad manbaini yaratish yo'nalishida olib borilgan ishlar natijasida 13 nafar ishsiz fuqaroning ishga joylashishiga yordamlashildi.

Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish uchun imkoniyat yaratish maqsadida bir qator fuqarolarga subsidiya va kredit mablag'lari ajratilishiga, tibbiy-ijtimoiy himoyaga muhtoj ko'plab fuqarolarga imtiyozli davolanish uchun order hamda yashash sharoitlarini yaxshilash maqsadida turli ko'rinishdagi moddiy yordam olishga ko'maklashildi.

Aholini tashvishlantirayotgan tuman va shahar darajasidagi 773 ta hamda viloyat darajasidagi 302 ta masalani mahalliy ijro hokimiyati va boshqa tegishli mutasaddi idoralari bilan birgalikda hal etish choralari ko'rilmoqda. Shuningdek, vaqt va mablag' talab qiladigan respublika darajasidagi 16 ta masala alohida nazoratga olindi.

Saylov okruglaridagi uchrashuvlar mobaynida aniqlangan muammo hamda kamchiliklarni fraksiyalar o'z dasturiy maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, parlament nazorati shakllaridan foydalanish holda bartaraf etish choralari belgilab olindi.

Shu bilan birga, qo'mitalarning o'z sohalarini bo'yicha saylov okruglarida aholi tomonidan ko'tarilgan masalalarni atroflicha o'rganish hamda zaruratga ko'ra, tegishli qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yuzasidan takliflar ishlab chiqishi rejalashtirilgan.

Xalq vakillarining aholi bilan ta'sirchan muloqotini yo'lga qo'yish – muhim mexanizm. Shunday ekan, ushbu amaliyotni yanada keng joriy etish, deputat va saylovchi o'rtasidagi ishonch munosabatlarini mustahkamlash maqsadga muvofiq. Bu esa qonunlarning samarali ishlab chiqilishi, muhokamadagi muhim masalalardan jamoatchilik xabardorligi oshishiga xizmat qiladi.

“Xalq so'zi”.

XALQLARIMIZNI BIR-BIRIGA YAQINLASHTIRADIGAN ANJUMAN

1 Bunday nufuzli tadbirlar ikki davlat rahbarlarining siyosiy irodasi, o'zaro do'stligi tufayli barcha sohada izchil kengayib borayotgan hamkorlik samarasidir.

– Ozarbayjon va O'zbekiston munosabatlari o'zaro hurmat hamda tenglik tamoyillari asosida izchil yuksalmoqda, – deydi Ozarbayjon Respublikasi madaniyat vaziri Adil Karimli. – Keyingi yillarda davlatlarimiz rahbarlari – Ilhom Aliyev va Shavkat Mirziyoyev bir necha marotaba uchrashdi. O'zbekiston Prezidentining 2023-yil 22-23-avgust kunlari Ozarbayjon tashrifini tarixiy deb atagan bo'lardim. Prezidentlar O'zbekiston Respublikasi va Ozarbayjon Respublikasi o'rtasida Oliy davlatlararo kengash tashkil etish to'g'risidagi shartnomani imzoladi. O'tgan yili Ozarbayjonda O'zbekiston madaniyati kunlari, shu yil yanvar oyida esa O'zbekiston fani va madaniyati kunlari yuksak saviyada o'tkazildi. Hamkorlik tufayli ikki davlat fuqarolarining O'zbekiston va Ozarbayjon an'analari, boy va o'ziga xos madaniyati, diqqatga sazovor maskanlari, tarixiy, me'moriy qadimlari hamda noyob tabiiy yodgorliklari bilan tanishish imkoniyatlari sezilarli darajada oshdi. Tarix shuni tasdiqlaydiki, madaniy muvaffaqiyatlar xalqlar o'rtasidagi o'zaro aloqalar tufayli tarqaladi. Biz do'stligimiz, qardoshlik munosabatlarimizning yanada mustahkamlanishiga ishonamiz.

Ozarbayjon madaniyati kunlari doirasidagi tadbirlar nihoyatda qizg'in ruhda o'tmoqda. Bu tufayli yurtidoshlarimiz ozarbayjon madaniyati, san'ati xazinolari, jumladan, olimlar, adiblar, madaniy arboblarning bebaho asarlari bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Jumladan, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida Ozarbayjon va O'zbekiston ziyolilari uchrashuvi hamda Muhammad Fuzuliy kulliyoti taqdimoti, ushbu daho ijodkor tavalludining 530-yilligiga bag'ishlangan Fuzuliy va Alisher Navoiy kompozitsiyasi namoyishi bu borada muhim

ahamiyat kasb etdi.

Fuzuliyning ikki jildlik kulliyoti O'zbekistondagi Haydar Aliyev nomidagi Ozarbayjon madaniyat markazi tomonidan chop etilgan bo'lib, nashrga akademiklar – Isa Habibiyev va Shuhrat Sirojiddinov ilmiy muharrirlik qilgan. Kitobni Karimulla Mammattzoda nashrga tayyorlagan. Kulliyotdagi g'azallarni fidoyi o'zbek tarjimoni, O'zbekiston Respublikasi fan arbobi Xolid Rasul o'zbek tiliga o'g'irgan.

Tadbirda Fuzuliy ijodining o'ziga xosligi, buyuk o'zbek mutafakkiri Alisher Navoiy o'ziga ustoz deb bilgani, bu ikki daho merosini muhtarak holda puxta o'rganish bugungi ilm-fan oldidagi dolzarb vazifalardan biri ekanini ta'kidlandi. Bunday yaqin ilmiy, madaniy aloqalar ikki xalq boy madaniy merosi targ'ibotiga xizmat qiladi.

– Xalqlarimiz ulug' ajdodlar xotirasi va merosiga yuksak ehtirom ko'rsatib kelmoqda, – deydi Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasining xalqaro aloqalar va tarjima masalalari bo'yicha kotibi Salim Bobulla o'g'li. – Xususan, 2008-yilda Boku shahrida ulug' mutafakkir Alisher Navoiy haykali o'rnatilgan. Bokuning markaziy ko'chalaridan biriga falakiyot ilmining buyuk namoyandasi Mirzo Ulug'bek nomi berilgan. O'zbekistonda ham Ozarbayjon xalqining bebaho madaniy merosiga hurmat-ehtirom g'oyat balandligiga guvohimiz. Toshkentning so'lim maskanlaridan birida ulug' mutafakkir Nizomiy Ganjaviy haykali o'rnatilgan. Ko'plab ko'cha va xiyobonlar, madaniy-ma'rifiy muassasalar Ozarbayjon xalqining buyuk farzandlari nomi bilan ataladi. Xususan, Toshkentdagi ko'chalardan biriga ozar xalqining umummilliy lideri Haydar Aliyevning nomi berilgan. Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan Ozarbayjon madaniyat markazi binosi oldida buyuk davlat va siyosat arbobiga yodgorlik o'rnatilgan. O'zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan Turkiy adabiyot durdonalari majmuasi nashr etilib, unda Ozarbayjon adabiyotiga 16 jild ajratilgani, jumladan, Fuzuliy ijodiga munosib



o'rin berilgani bizga faxr-iftixor bag'ishlaydi.

Qadim-qadimdan she'riyatga, adabiyotga oshufla bo'lgan ajdodlarimiz Navoiy ham, Fuzuliy ham, Nasimiy va Mashrabni ham bir xil muhabbat, ehtirom ila e'zozlab, mutolaa qilib kelganlar, har ikki xalqqa mansub hassos shoirlar yaratgan bebaho durdonalar tarjimasiz tushunilgan. Fuzuliy, Nasimiy she'rlari asosida aytiladigan o'zbek qo'shiqlari, Alisher Navoiy g'azallariga bastalangan ozar tonalari musiqa shaydolarining keng tarqalib aylanib ulgurgan.

Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasida Ozarbayjon adabiy burchagi ochilgani ham e'tiborli jihatlardan biridir. Bu yerda ozarbayjon xalqining atoqli vakillari merosi bilan yaqindan tanishish mumkin. Shu bilan birga, ularni ko'zdan kechirgan kishi borki, o'zbek va ozarbayjon xalqlarining tarixi, qadriyatlari, moddiy va nomoddiy merosi o'zaro uyg'un ekaniga yana bir bor amin bo'ladi.

Darhaqiqat, xalqlarimizning muhtarak yodgorligi hisoblanish "Avesto" kitobi, shuningdek, xalq og'zaki ijodining o'lmas durdonalari sanalgan "Go'ro'g'li", "Oshiq G'arib", "Dada Qo'rqut" dostonlari azaliy qardoshlik, do'stlik va birodarlikning yorqin isbotidir. O'zbek musiqasining gultoji sanalgan nodir maqomlar va

betakror Ozarbayjon mug'omlari orasidagi hamohanglik har ikki xalq o'rtasidagi yaqinlikni o'zida ifodalaydi.

– O'zbek va ozarbayjon xalqlarining madaniyati umuminsoniy qadriyatlarga tayanadi: insonparvarlik, adolat, an'analarga sadoqat, bag'rikenglik, taraqqiyot va farovonlikka intilish. Mentalitetlarimiz ham o'xshash. Oiladagi munosabat, onaga, Vatanga muhabbat, jamiyat oldida qarzdorlik hissi bir xil, – deydi Ozarbayjon madaniyat vaziri o'rinbosari Farid Ja'farov. – O'yilashimcha, kelajak avlod farovonligi yo'lida ikki tomonlama munosabatlarni yanada mustahkamlash va kengaytirishimiz kerak. Xalqlarimiz bir-biri haqida ko'proq narsa bilishlari uchun qo'limizdan kelganini qilamiz. Buni asosiy vazifa sifatida ko'rib, bu xayrli ish yo'lida bor kuchimizni beramiz.

"O'zbekiston" xalqaro anjumanlar saroyida o'tkazilgan konsert dasturida ham ayni jihat yana bir bor namoyon bo'ldi. Unda yig'ilganlar bir-biridan go'zal tarzda ijro etilgan kuy-qo'shiqlarni tinglab, raqsarlari

tomosha qilib, katta zavq oldi. O'zbek va ozar san'atkorlari qalbga yaqin qo'shiqlarni jo'r bo'lib ijro etishdi. Boshqacha aytganda, chinakam bayramona muhit hukm surdi. Shubhasiz, mazkur konsert dasturi ikki xalqning madaniyati va san'ati betakror ekanini yana bir karra ko'rsatib berdi.

Kuni kecha O'zbekiston tasviriy san'at galereyasida "Ozarbayjon madaniyati" nomli ko'rgazmaning ochilishi, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining o'quv teatri binosida Ozarbayjon drama teatri "Mana man" spektakli namoyishi va ijodiy uchrashuv tashkil qilindi.

Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston davlat akademik katta teatrida Ozarbayjon davlat opera teatri jamoasining "Arshin mal alan" spektakli namoyishi qatnashchilar kayfiyatini yanada ko'tardi.

13-iyun kuni Muqimiy nomidagi O'zbekiston davlat musiqali teatrida Ozarbayjon madaniyati kunlari tadbirlarining yopilish marosimiga bag'ishlangan konsert dasturi o'tkazilish rejalashtirilgan.

Yurtimizda o'tayotgan Ozarbayjon madaniyati kunlari xalqlarimizni birlashtirib turgan yaqinlik, do'stlik va hamjihatlik azaliy orzu-niyatlarimizga naqadar muhtarak ekanini yana bir bor ko'rsatmoqda. Ayni paytda madaniy-gumanitar tadbirlar ushbu ezgu qadriyatlar abadiylikka ishonchini yanada mustahkamlamoqda.

Dilshod KARIMOV
("Xalq so'zi").

"Murojaatdan – daromadga" loyihasi doirasida 115 nafar xotin-qiz ishli bo'ldi

Prezident Xalq qabulxonasining "Murojaatdan – daromadga" loyihasi Buxoro viloyatining Shofirkon tumanida katta festivalga aylandi. Erta tongdan tuman markazida o'tkazilgan "Sog'lom hayot uchun 5000 qadam" yurish marafoni Yoshlar bog'idagi turli ko'rgazmalaru kitobxonlik anjumaniga, yosh rassomlar uchun mahorat darslarini harbiy-vatanparvarlik dasturlariga, sport musobaqalari va aholi daromadini oshirish yo'lidagi ezgu amallarga ulanib ketdi.



Bularning barchasi o'zaro uyg'unlikda viloyatni kambag'allik, ishsizlik va jinoyatdan xoli hududga aylantirish borasidagi Buxoro tajribasini yaratishga xizmat qiladi.

Bu jarayonda Prezident maslahatchisi o'rinbosari – Xalq qabulxonasi rahbari Ulug'bek Muhammadiyev boshchiligidagi Respublika ishchi guruhi tomonidan moddiy yordam masalasida murojaat qilgan shofirkonlik

115 nafar xotin-qizga sektor rahbarlari bilan birga yaqin ish anjomlari topshirildi. Tikuv mashinalari, sut, go'sht va sabzavotlarni qayta ishlash uskunalari olib berilgan har bir murojaatchi o'z hududida shu yo'nalishdagi lider tadbirkorlarga birlashtirildi. Bu esa aholi daromadini oshirish, bu boradagi murojaatlarga samarali yechim topishning yana bir xalqchil mexanizmdir.

Masalan, Qalmaqon mahallasida yashovchi tadbirkor Oynisa Sharipova ham bugun Mohira Ikromova kabi subsidiyaga uskunaga olib ish boshlagan to'rt nafar mahalladoshi bilan kooperatsiya tashkil qildi. To'rt ayol o'z uyida yarimtayyor

oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarsa, tadbirkor ularni sotib olib iste'molchilarga yetkazib beradi. Bundan barcha birdek manfaatdor.

Yoki Denov mahallasida yashovchi Nodira Karimova ham mahallasidagi tadbirkor bilan birlik, subsidiyaga olingan separatorda sutni qayta ishlash, qaymoq, sariyog' olishni boshladi. Bu bilan oila budjeti uchun yana bir daromad manbai yaratildi.

Tuman markazidagi Yoshlar bog'i anchagacha gavjum bo'ldi. Mehnat yarmarkalari, kasb-hunar o'rganishi, oliy ta'lim, sog'lom ovqatlanish kabi yo'nalishlardagi ko'rgazmalarda aholining barcha qatlami, ayniqsa, ishsiz xotin-qizlar mehnat qilib jamiyatning faol a'zosi sifatida qatnashish uchun keng miqyosda ma'lumotlar, maslahat va ko'mak olish imkoniga ega bo'ldi. Buxoro shahridan kelgan tajribali shifokorlar 470 dan ziyod fuqarolarni tibbiy ko'riqdan o'tkazdi.

"Buxoro tajribasi – sadoqat namunasini" tamoyili asosidagi bunday tadbirlar viloyatning boshqa hududlarida ham tashkil etilyapti.

"Xalq so'zi".

REKLAMA

«O'zmilliybank» AJ O'zbekistonda ilk bor yuridik shaxslar uchun masofaviy hisob raqamini ochish xizmatini taklif etadi

"O'zmilliybank" AJ mamlakatimizda birinchi qatorida yuridik shaxslar uchun bank amaliyotlariga yondashuvini butunlay o'zgartiruvchi innovatsion xizmatni taqdim etadi.

Endilikda korxonalar va tashkilotlar masofadan turib, bank xodimi bilan hech qanday uchrashuv o'tkazmasdan joriy hisob raqamini ochishi mumkin. Buning uchun bankning "Milliy" mobil ilovasini yuklab olish va ro'yxatdan o'tish kifoyati.

- Ushbu xizmatning asosiy afzalliklari:**
- Samaradorlik: online tarzda hisob ochish orqali vaqtinigizni tejang.
 - Qulaylik: qog'ozbozlikni unuting.
 - Xavfsizlik: barcha ma'lumotlar himoyalangan.
 - "Milliy" mobil ilovasini yuklab oling va hoziroq onlayn ro'yxatdan o'ting!

Batafsil ma'lumot uchun 1344 raqamiga qo'ng'iroq qiling.

BOLALIKNING BAXTLI ONLARI

O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi tomonidan Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanida joylashgan "Nihol" bolalar sog'lomlashtirish oromgohida 12-iyun – Butunjahon bolalar mehnatiga qarshi kurash kuniga bag'ishlangan tadbir o'tkazildi.

Unda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, O'zbekiston ish beruvchilari konfederatsiyasi hamda Xalqaro mehnat tashkiloti vakillari ishtirok etdi.

Tadbir

Bayramona ruhda o'tkazilgan mazkur aksiyadan ko'zlangan maqsad – aholining, shu jumladan, yosh avlod vakillarining O'zbekistonda bolalar mehnatiga yo'l qo'ymaslik masalasi davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanligidan xabardorlik darajasini yanada oshirish, shuningdek, xuddi shu maqsadda olib borilayotgan tizimli sa'y-harakatlarni keng jamoatchilikka, jahon hamjamiyatiga yetkazishdir.

Tadbir doirasida Kasaba uyushmalari Federatsiyasi mutaxassislari tomonidan turlari yoshdagi bolajonlarga mazkur sananing mazmun-mohiyati interfaol usullar orqali tushuntirib berildi. Xususan, ishtirokchilarga mamlakatimizda bola huquqlarining ta'minlanishi to'g'risidagi taqdimot va roliklar yordamida batafsil ma'lumot berilib, mavzuga oid tanlov va viktorinalar tashkil qilindi.

Qayd etib o'tish joiziki, Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) tashabbusiga ko'ra har yili 12-iyun Butunjahon bolalar mehnatiga qarshi kurash kuni sifatida keng nishonlanadi. Mazkur sanaga bag'ishlangan tadbirlar bu yil dunyo miqyosida "Bolalar mehnatiga barham berish bo'yicha o'z majburiyatimizni bajaraylik" shiori ostida o'tkazilmoqda.

Ma'lumotlarga ko'ra, dunyo bo'yicha 5 dan 17 yoshgacha bo'lgan 160 million bola, asosan, qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish va sanoatda bolalar mehnati bilan band. Ishlayotgan bolalarning qariyb yarmi sog'lig'i, xavfsizligi va ma'naviy rivojlanishiga xavf tug'diradigan ishlarni

bajaradi.

O'zbekistonda o'sib kelayotgan yosh avlodning har tomonlama barkamol rivojlanishi uchun barcha zarur shart-sharoit yaratilgan bo'lib, ma'nau va jismonan sog'lom avlod tarbiyasi davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Prezidentimiz tashabbusi bilan mamlakatimizda bolalar mehnatiga yo'l qo'ymaslik, bola huquqlarini himoyalashning kuchli mexanizmlarini yanada rivojlantirish, shuningdek, xalqaro konvensiyalarga muvofiq milliy qonunchilik bazasi va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirishga yo'naltirilgan keng ko'lami ishlar amalga oshirildi.

Buning natijasida O'zbekistonda bolalar mehnatidan foydalanish holatlarining mavjud emasligi XMT ekspertlari tomonidan ham dunyo miqyosida e'tirof etildi. Xususan, Barqaror rivojlanish maqsadlarining 8.7-maqsadi, ya'ni 2025-yilga borib bolalar mehnatiga barham berish vazifasi muddatidan oldin bajarilgan kam sonli mamlakatlardan biri – O'zbekiston bo'lib, yurtimizda bolalar mehnatidan tizimli foydalanilmayotgani XMT tomonidan 2018-yildayoq tan o'ldi.

Mana shu ko'rsatkichlarning o'ziyoq O'zbekiston inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish g'oyasiga sodiqligini hamda bundan buyon ham amaliy islohotlar yo'lidan borishini namoyon etish barobarida, ko'rilayotgan choralar va islohotlar yaxlit, barqaror va orqaga qaytmas tus olganidan dalolatdir.

Bolalar mehnatiga qarshi kurashda



muhim profilaktik choralaridan biri bo'lgan yo'nalish – maktab yoshidagi bolalar uchun yozgi sog'lomlashtirish ishlarini tashkil etish yo'nalishida ham O'zbekiston boy tajribaga ega. Joriy yilda 1 298 ta bolalar sog'lomlashtirish oromgohi faoliyati yo'lga qo'yilib, ularda 332 mingdan ziyod o'g'il-qizlarni sog'lomlashtirish rejalashtirilgan.

O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi tomonidan "Nihol" bolalar sog'lomlashtirish oromgohida tashkil etilgan tadbirda bolajonlarga mazkur yo'nalishlarda amalga oshirilayotgan ishlar va ularning natijalari, Butunjahon bolalar mehnatiga qarshi kurash kunining mazmun-mohiyati, bu borada yurtimizda olib borilayotgan tizimli ishlar to'g'risida so'zlab berildi. Tadbir doirasida ushbu maskanda dam olayotgan o'g'il-qizlar o'z qiziqishlaridan kelib chiqqan holda raqs, qo'shiq, sahna ko'rinishlari, rasm chizish, shaxmat, shaxka, stol tennisi, hunarmandchilik yo'nalishlarida tematik guruhlarga bo'linib, mashg'ulotlar o'tkazdi.

Tadbir doirasida bolajonlar o'rtasida

o'tkazilgan tanlov va viktorinalarda o'lib o'tgan o'g'il-qizlar Kasaba uyushmalari Federatsiyasining esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi. Yosh avlod vakillari bilan bola huquqlari borasida o'tkazilgan savol-javob viktorinalari esa naqaron avlodning naqadar zukko va bilimli bo'lib voyaga yetayotgani, xalqaro konvensiyalar bo'yicha yuksak xabardorlik va bilimlarga ega ekanligini namoyon etdi.

O'g'il-qizlar to'laqonli bilimli bo'lishi, har tomonlama kamolga yetishi, ta'lim davrida maroqli dam olishi uchun davlatimiz tomonidan yaratib berilayotgan shart-sharoitlardan mamnun ekanliklarini, O'zbekiston haqiqiy ma'noda baxtli bolalar mamlakati ekanligini she'r va qo'shiqlari orqali izhor qildilar.

Tadbir yakunida butun dunyo bolalariga ezgulik va baxt tilaklari aytildi.

Muhabbat O'RMONBEKOVA,
O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Matbuot xizmati rahbari.

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-542. 14 275 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; Kotibiyat 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir Z. Xudoyshekurov.
Musahhih Sh. Mashrabboyev.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonalar manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni – 21.25 Topshirildi – 00.30 1 2 3 4 5 6

Xalq so'zi Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi